

UO‘K 821.111/861.62:82-1

**UILYAM FOLKNER VA GABRIEL GARSIA MARKES IJODIDA BADIY
MAKON POETIKASI***(U.Folknerning “Uosh” hikoyasi va G.G.Markesning “Yolg‘izlikning yuz yili” romani
misolida)***Chuliyeva Nilufar A‘zam qizi,***Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti dotsenti**E-mail: nilufarchuliyeva@gmail.com***DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18843745>**

Annotatsiya. Mazkur maqolada badiiy makon poetikasiga doir ilmiy-nazariy yondashuvlar asosida g‘arb adabiyotining ikki vakili – Uilyam Folkner va Gabriel Garsia Markes ijodidan namunalar tahlil qilingan. Adabiy asarlarda mavjud umumiy, xayoliy makon hamda uning ma‘naviy qirralari hikoya va roman misolida ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: badiiy makon, badiiy zamon, hikoya, roman, ramziy makon, mifologik zamon, mifologik makon.

Аннотация. В данной статье на основе научно-теоретических подходов к поэтике художественного пространства проанализированы образцы творчества двух представителей западной литературы - Уильяма Фолкнера и Габриэля Гарсиа Маркеса. Общее, воображаемое пространство, существующее в литературных произведениях, и его духовные аспекты раскрываются на примере рассказа и романа.

Ключевые слова: художественное пространство, художественное время, рассказ, роман, символическое пространство, мифологическое время, мифологическое пространство.

Annotation. This article analyzes examples from the works of two representatives of Western literature - William Faulkner and Gabriel Garcia Marquez - based on scientific and theoretical approaches to the poetics of artistic space. The general, imaginary space existing in literary works and its spiritual aspects are revealed on the example of stories and novels.

Key words: artistic space, artistic time, story, novel, symbolic space, mythological time, mythological space.

Kirish. Badiiy asarning asosiy tushunchalaridan bo‘lgan zamon va makon tadqiqi badiylikning o‘ziga xos jihatlari, muayyan asarning janr va kompozitsiyasi, muallif uslubi haqida muhim xulosalar chiqarishga xizmat qiladi. Shu boisdan ham zamon va makonni tahlil qilish yo‘llari, umuman, mazkur tushunchalar haqidagi tadqiqotlar hali ham salmoqli tarzda davom etib kelmoqda. Makon poetikasi haqidagi ilmiy ishlar asar matni jozibasini, voqealar dinamikasi va obrazlarning o‘ziga xos tasvirini berishdagi ahamiyatini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar tahlili. Dunyo ilm-fanida makon haqidagi yondashuvlar ilk bor falsafada kas etgan bo‘lsa, jahon adabiyotshunosligida badiiy makon muammosi XX asr boshlaridan tizimli ravishda o‘rganila boshlandi. Jumladan, rus olimlari Y.Lotman semiotik tizim sifatida (“Структура художественного текста”, 1970.) hamda M.Baxtin mazkur tushunchasi zamon va makonning uyg‘unlashuvi tarzida (“Проблемы поэтики Достоевского”, 1963.) talqin etdilar. XX asrning ikkinchi yarmida esa g‘arbiy Yevropada olim G.Bachelard tomonidan badiiy makonning tafakkur va ruhiyat bilan aloqadorligi

(“The Poetics of Space”, 1958.) ochib berildi. Olim M.Fukoning “geterotopiya” nazariyasi esa madaniy va diskursiv makon tushunchasini rivojlantirdi (“Des espaces autres”, 1967.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada g‘arb adabiyoti nasrining ikki yirik yozuvchisi G.Markes va U.Folkner ijodida badiiy makon qurishning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilindi. Qiyoslash jarayonida har ikki ijodkor asarlarida badiiy makon poetikasida umumiy va farqli xususiyatlar aniqlandi. Umuman, g‘arb adabiyotida badiiy makonning asar matnidagi ma’noviy qirralariga e’tibor qaratildi.

Tahlillar va natijalar. G‘arbning ba’zi mashhur yozuvchilari ijodida yagona, umumiy makon bir asardan boshqasiga “ko‘chib yuradi”. Xususan, Uilyam Folkner, Gabriel Garsia Markes kabilar ijodida mazkur jarayon namoyon bo‘ladi. Yoknopatofiya okrugini, uning nomini ham, geografik hududini ham Folknerning o‘zi xayolan yaratgan. U mazkur okrugning “geografik xaritasini 1936 yilda birinchi marta, ikkinchisini esa 1945 yilda chizgan. Folkner bu “afsonaviy okrug” vositasida umrining asosiy qismi o‘tgan Missisipi tasvirlarini xayolan qayta jonlantiradi” [4]. Folkner uchun bu joy badiiy zamon va makonning ramziy tasviri hamdir. Yoknopatofiyani Folkner voqealar rivoji uchun asos bo‘ladigan dinamik makon sifatida qo‘llagan. Bu joy Folknerning katta-kichik janrdagi asarlarida zamon va makonning turli shakl-xususiyatlari bilan namoyon bo‘ladi. Muallif badiiy zamon oqimini qahramonlarning ruhiy holati, dardi va kechinmalari bilan to‘ldiradi. Folkner asarlarida, aksariyat hollarda o‘tmish va hozirgi zamon bir-biri bilan qorishib ketadi. Voqealar bir paytning o‘zida o‘tgan kunlarning bayoni va hozirning aks-sadosi sifatida yoritiladi. Muallif bu xususiyat orqali badiiy zamon murakkabligini hamda uning har bir obraz uchun xilma-xil kechishini tasvirlaydi.

Folkner asarlarini tadqiq etgan xorijlik olimlardan biri Michael Millgate o‘zining “The Achievement of William Faulkner” (“Uilyam Folknerning yutug‘i”) nomli kitobida Yoknopatofiya okrugi shunchaki voqealar kechadiga joy emas, balki qahramonlarning ijtimoiy va tarixiy taqdirini ochib beruvchi makon ekanini qayd etadi. Uning fikricha, Folknerning asarlaridagi bu okrug har doim dinamik ramziy ma’noga ega bo‘lib, har bir hikoya va romanda turlicha mazmun kasb etadi, ya’ni har bir asarda mazkur joy o‘ziga xos ramziy ma’noga ega. Jumladan, Millgate “Absalom, Absalom!”, “Avgustdagi yog‘du”, “Musso, yerga tush”, “Uosh” kabi asarlarda bir xil joylarning turli ramziy ma’nolar ifodalashini ta’kidlaydi. Asar matnidan ayon bo‘ladiki, Sutpenning plantatsiyasi Amerika janubining qudratli, ammo chirib borayotgan aristokratiyasini ifodalaydi. Bu joyning xarobaga aylanishi esa qahramonlarning tanazzulga yuz tutgan ruhiy olamini, fojiaiy taqdirini aks ettiradi. Shu bilan birga, Mister Kaslin plantatsiyasi esa avvalgi qullik tizimining ramzidir. Folkner bu badiiy makon orqali irqiy va ijtimoiy ziddiyatlarning avloddan-avlodga o‘tishini va bu makonning har bir avlod uchun yangi bir achchiq hayotiy hikoyaga asos bo‘lishini mohirona ifodalaydi [1:122-145p.]. Bu tahlillar orqali olim Folkner ijodida makonning dinamikligi, uning ramziy ma’nosi, qahramon ruhiyatini tavsiflovchi, hikoya voqeligi rivojiga ta’siri kabi xususiyatlarini aniqlaydi. Folkner

asarlarida quldorlik, irqchilik, ijtimoiy tengsizlik, erksizlik, adolatsizlik kabi jamiyat rivoji uchun to'siq bo'ladigan jarayonlar, g'oyalar qoralanadi. Uning o'zbek tiliga tarjima qilingan asarlaridan biri "Uosh" hikoyasida ham aynan mana shu illatlar shavqatsiz tasvirlanadi, fosh etiladi.

Hikoyada Amerika qit'asida 1861-1865 yillarda yuz bergan fuqarolar urushidan keyingi insonlarning ayanchli taqdiri yoritiladi. Shimoliy va Janubiy Amerika o'rtasidagi bu urush, asosan, janubdagi quldorlik tuzumining barham topishiga qaratilgan edi. Hikoyada polkovnik Satpen urush tufayli ayoli va o'g'lidan ayrilgan, uzum plantatsiyalari xarobaga aylangan eski mulk egasi hamda uni avliyo, qahramon deb biladigan xizmatkor quli Uosh Jons fojiasi yoritilgan. Satpen urushdan qaytgach, bor-budini deyarli boy bergan edi. Uning mahalliy nochor aholi, qora tanlilar uchun arzon narsalar sotadigan kichik do'koni va otxonasi qolgan edi, xolos. U vaqtini keng, tok shoxlari chirmashgan plantatsiyasida emas, endilikda "nochorgina do'konning orqasi"da Uosh bilan viski ichib o'tkazar edi. Folkner bu tasvirlar orqali *makonni* qahramon ijtimoiy darajasini va quldorlik tuzumining ham yemirilib borayotganini ko'rsatishda asosiy vosita qilib oladi. Hikoyadagi badiiy zamon Satpenning urushga ketishi va qaytganidan keyingi ikki yilni o'z ichiga oladi. Bu vaqtda Uoshning nevarasi – o'n yetti yoshli Milli Satpendan zurriyot kutar edi. Qari polkovnik Millini avvaliga arzon tasmalar va ko'ylaklar bilan siyladi. Buni Uosh ko'rib turar, ammo Satpenga bo'lgan "sig'inishi" tufayli bu holatga qarshilik qila olmasdi. Nevarasining ko'zi yorigach, Satpenning eski kulbada, yog'och karavotda yotgan Milliga: " – Attang, Milli, biya emassan-da. Seni otxonamning eng yaxshi yeriga joylab qo'yardim" [7:147 b.], degan haqoratli gapidan keyin Uoshning es-hushi joyiga keladi. U boshida nevarasining Satpendek buyuk odamga farzand hadya etayotganidan o'zida yo'q xursand edi. Uosh Satpenni shu darajada ulug'lashtirib yuborgan edi-ki, uning hech bir ishi xato emas, aksincha, qahramonlik deb o'ylar edi. Toki u Milliga nisbatan tahqirlovchi jumlaning aytmaguniga qadar. Shundan so'ng Satpen va Uosh o'rtasida ziddiyat boshlandi. Va bu uzoqqa cho'zilmadi, shu kunning o'zidayoq Uosh satpenni joniga qasd qiladi. Hikoya boshidan zamonning, asosan, qahramonlar kechinmalari va his-tuyg'ularining ifodasi bilan ohista, bir tekis o'tayotgani namoyon bo'ladi. Hikoya so'ngida esa voqealarning rivoji, dramatiklashuvi, ziddiyatning ortishi badiiy zamonga ham ta'sir etadi. Zamon tezlashadi va zichlashadi. Uosh yashaydigan kulba – makonning tasviri ("... tashlab qo'yilganidan butunlay puturdan ketgan, xuddi to'yib suv ichamanu so'ng o'laman deb, daryo labiga bazo'r sudralib yetib kelgan nochor maxluqqa o'xshab qolgandi" [7:149 b.]) nafaqat qahramonning ijtimoiy holatini, balki qullik taqdirining fojiasini ham ko'rsatib beradi. Uoshning zamoni ham umidsiz, nochor va puch xayollar bilan o'tayotgan taqdir tasvirlari bilan qoplangan. Shuning uchun uning zamoni bir xil, bir zaylda, o'zgarishlar va natijalarsiz o'tayotgan zamon oqimidir. U o'zini hayotda faqat xo'jayini Satpen bilan bog'liq ko'ra oladi. Uning tobe'ligi nafaqat iqtisodiy-ijtimoiy, balki ruhiy qaramlik hamdir. Satpen esa o'zining avval qo'lida bo'lgan mol-mulki, plantatsiyalari – o'tmishdagi

obro'si bilan bugunini yashayotgan odam. U o'tmishi bilan bugunini qorishtirib yuborgan obraz, shuning uchun ham o'z kelajagini ko'ra olmaydi. Uning xudbinligi, insonga hayvondan-da past qarashi hikoyaning fojiviy yakuniga sabab bo'ladi. Uoshning oniy lahzada qaror qilishi, Satpenni o'ldirishi hikoyadagi zamonning tabiiy oqimini tezlashtiradi. Voqealar oxirida Uosh uyga ham o't qo'yadi, shu orqali u go'yo butun boshli noteng jamiyatga isyon qiladi. Yoqib yuborilgan makon o'zi bilan barcha gunohlarni, zaiflikni, ijtimoiy tengsizlikni va butun quldorlik tuzumining ham kul bo'lganini ramziy ifodalaydi.

Darhaqiqat, Folkner yaratgan dunyo ana shunday kuchli ruhiy ziddiyatlar, adolatsizlikka qarshi kurash, insoniy qadr-qimmatni o'rnatish asosiga qurilgan. U "... insonni, uning erkini, sha'ni va g'ururini ulug'laydigan yangi dunyoning yangi afsonalarini" [6:321 b.] yaratdi. Odatda, buyuk yozuvchilar o'z asarlarida ko'targan masalalar ham shunday cheksiz kengliklarni qamrab olar darajada ulkan bo'ladi. Ana shunday ulug' yozuvchi Gabriel Garsia Markes asarlarida ham butun insoniyatning kechagi kunini qora qilgan, ertasiga xavf soladigan illatlar mundarijasi belgilangan.

Fusunkor realizm adabiyotining eng sara namunalarini yaratgan Markes asarlarida badiiy zamon va makon afsonaviy, tarixiy, zamonaviy xususiyatlarga egaligi bilan xarakterlidir. Shuning uchun ham uning ijodida badiiy zamon va makonning murakkab, ko'p o'lchamli shakllari uchraydi. Makondo badiiy Makoni muallifning o'ziga xos uslubi va uning afsonalarga, tarixga bo'lgan qiziqishining natijasi o'laroq yaratilgani adabiy suhbatlarda bot-bot takrorlanadi. G'arb adabiy hikoya usulidan farqli ravishda u vaqtning chiziqli, siyrak o'lchovli an'anaviy shaklini emas, balki xotira, tarix va afsonalar qorishgan zich shaklini tanlab oldi. Xususan, "Yolg'izlikning yuz yili" romanida ham takrorlanuvchi voqealar, ismlar (masalan, Xose Arkadio, Aureliano), taqdirlar uchraydi. Badiiy zamonning bu aylanma harakati insoniyat hech qachon o'z xatolaridan, qadar-qismatidan qochib qutula olmasligini qayta anglatgandek bo'ladi. Darhaqiqat, tarix takrorlanadi; voqealar, do'st-dushman, yaxshi-yomon, zolim-mazlum, boy-faqir, ularning o'zaro dialoglari, hatto oddiy kundalik so'zlashuvimiz ham (salom, xayr, sog' bo'ling, rahmat, arzimaydi va h.k.) takrorlardan iborat. "Yolg'izlikning yuz yili" romani oddiy takrorlardan ulkanlariga qadar barchasini qamrab oladi. Ya'ni romanda insoniyatning gunohlari va xatolarining takrorlari eng buyuk nuqsonlardan ekani ta'kidlanadi. Aynan mana shu takrorlarning mavjudligi asl fojia ekani obrazlar vositasida tasvirlab beriladi. U yaratgan Makondoda ro'y berayotgan voqealar undan tashqarida boshqa yana bir olam borligini ko'rsatadi. Va bu olam Makondoga ham o'z ta'sirini o'tkazib turadi. Makondoda yuz bergan g'aydi oddiy voqealar u yer aholisini ajablantirmasligi o'quvchini ham o'ylantiradi. Natijada, Markesning sehrli olami badiiy haqiqatni, vaqtni qayta o'zlashtirishga, badiiy makonning cheksizliklarini his etishga majbur etadi. Markes o'z Makondosini sof holda asrash, barcha tashqi ta'sirlardan mudofaa qilish uchun uni botqoqliklar, tog'lar bilan o'rab qo'yadi. Ammo baribir dengiz o'rtasiga to'g'on qo'yib bo'lmagani kabi muayyan

hududni tashqi ijtimoiy, axborot, texnogen ta'sirlardan asrashning iloji yo'q. U shuni ko'rsatish uchun ham Makondo orqali Lotin Amerikasidagi oddiy qishloqning hayot tarzini, odamlarning ijtimoiy muammolarini, yolg'izlik, nafs hukm surgan qalbini, shuningdek, butun insoniyatning davomli texnologik sivilizatsiyasini, buning salbiy va ijobiy jihatlarini tasvirlaydi, ramziylashtiradi.

Asarda Makondo qishlog'i Xose Arkadio Buendia tomonidan asos solingan, tashqi dunyodan uzilib qolgan, ammo go'zal manzarali, sokin joy sifatida tasvirlanadi. Vaqt o'tgach qishloq tashqi olam bilan bog'lana boshlaydi. Bu esa Makondoda o'zgarishlar yuz berishiga olib keladi. Modernizatsiyalashgan jamiyat qadriyatlarning yo'qolishiga, ijtimoiy va iqtisodiy tanazzulga yuz tutadi. Romanda bu jarayon Buendia oilasining fojialari orqali tasvirlanadi. Bu oilaning yetti avlodi va ularning boshiga tushadigan takroriy kulfatlar, voqealar butun jamiyatning ayanchli nuqsonlarini ko'rsatib beradi. Roman haqidagi tadqiqotlarda ham Makondoda yuz bergan voqealar asosida Lotin Amerikasining tarixi va u bilan bog'liq voqealarga ishora qilinishi ta'kidlanadi. Jumladan, Roberto Gonzalez (Roberto Gonzalez – Kubada tug'ilgan. U Lotin Amerika adabiyoti va madaniyatiga oid tanqidiy asarlari bilan mashhur. Ayni paytda AQShda yashab, Yale Universitetida ispan va qiyosiy adabiyotshunoslik bo'yicha professor sifatida faoliyat olib bormoqda. Olimning "Myth and Archive" asari Lotin Amerikasi romanlari haqida olib borgan tadqiqotlaridan biri bo'lib, ilmiy hamjamiyat tomonidan bir necha mukofotlar bilan taqdirlangan) o'z tadqiqotida shunday yozadi: "Romanning boshida, Makondo shahrining asos solinishida ilk kashfiyotlar va mustamalakachilik davri aks ettiriladi. Keyinchalik esa fuqarolar urushi va neokolonializm davrlari bilan davom etadi. Bularning barchasi Lotin Amerikasi tarixiy davrlari va voqealarini aks ettiradi" [2:20 p.]. Xususan, roman syujetida Lotin Amerikasi tarixida "Banan qatliomi" nomi bilan qolgan fojiali voqea tasvirlanadi. Yaqin tarixdan ma'lumki, "Banan qatliomi" Kolumbiyaning Syenaga shahrida 1928-yil dekabr oyida yuz bergan fojiali voqea bo'lib, u aholini chuqur larzaga solgan. O'sha vaqtda minglab banan plantatsiyasi ishchilari Amerikaning yirik korporatsiyalaridan birida ishlagan. Ular yaxshi ish sharoitlari, adolatli ish haqi va kasaba uyushmalari huquqlarini talab qilib ish tashlashgan. Ammo kompaniya talablarni rad etadi va ish tashlashni milliy xavfsizlikka tahdid deb e'lon qilib, hukumatni harbiy aralashuvga undaydi. Natijada, Kolumbiya hukumati harbiy qo'shinlarni yuboradi va namoyishchilarga qarata o'q uziladi. Qurolsiz ishchilar va ularning oilalari o'qqa tutiladi. Ko'plab odamlar halok bo'ladi. Vafot etganlar soni rasmiy ravishda qayd etilmagan bo'lsa-da, yuzlab va, hatto, minglab qurbonlar bo'lgani taxmin qilinadi. Bu qatliom Kolumbiya jamiyatida chuqur o'chmas iz qoldirdi va hukumatning o'z xalqini xorijiy kompaniya manfaatlari yo'lida qurbon qilishga tayyor ekanligini ifodalovchi ramzga aylandi. "Yolg'izlikning yuz yili" romanida ham mazkur voqea epizodi o'rin olgan. Bu real voqelik Markes uslubiga xos fantastik elementlar bilan boyitilib, Makondo qishlog'ining fojiali tarixini ifodalaydi. Halok bo'lganlarning jasadlari poyezdlarga ortilib, ularni ko'zdan yo'q qilishadi: "Bu sahna,

ya'ni **banan kompaniyasining qatliomni yashirishga bo'lgan urinishi** tarixni manipulyatsiya etilishiga ishoradir. Roman sehrli realizm uslubida yozilgani uchun poyezdlarda jasadlarning olib ketilishi voqeasi sirli, yashirin holat sifatida tasvirlanadi. Bu esa qirg'inning nafaqat jismoniy, balki psixologik va ijtimoiy izlarini ham ko'rsatadi" [5]. Qishloqqa dastlab taraqqiyot va boylik va'dasi bilan kelgan xorijiy banan kompaniyasi bu yerni ekspluatatsiya, korrupsiya va ekologik muammolar makoniga aylantiradi. Ushbu voqea romanda Makondo va Buendia oilasi uchun katta burilish nuqtasi bo'lib, qishloqning sof qiyofasini yo'qotishini, begona kuchlar tomonidan ekspluatatsiya qilinishini ramziy ifodalaydi. Asarda Buendia oilasi badiiy makon –Makondo bilan uzviy bog'langan. Bu yerda yuz bergan voqealar va ularning takrori tsiklik zamonni ifodalab, joriy zamonni ham makon bilan uyg'unlashtiradi. "Makondo tasvirida har qanday tarixiy va bugungi voqeliklar ichida zamonning va makonning buzilishi ko'rinadi. Roman va Melkiadesning xonasida zamon ikki xil yo'sinda ifodalanadi. Asarda badiiy zamon tsiklik bo'lsa-da, Melkiades xonasida o'z yo'lini davom ettirmaydi, aniqrog'i, to'xtab qolganday tuyuladi..." [2:24 p.]. Romanda Melkiades barchasini, yakunni ham oldindan ko'rib, bilib turgan shaxs sifatida bo'y ko'rsatadi. Uning zamoni roman zamonidan tashqarida ekani ham balki shundandir. Faqatgina Melkiadesning uyg'oq ruhi butun boshli qishloqni xotira yo'qolishi kasalidan qutqarishiga sabab bo'ladi. Ko'p jihatdan bu obraz haqiqatni ko'ra olgan inson qiyofasi sifatida tasvirlanib, muallifning romandan ko'zlagan asl muddaosini ochuvchi kalit obrazdir. Shuningdek, romanga fusunkor realizm xususiyatlarini ham olib kirgan obrazlardan biri: "Asarda kundalik hayot va g'ayritabiiy voqealar bir-biriga singdirilgan. Pilar Ternernaning fol ochishi, personajlarning o'z taqdirlerini oldindan aytishi, Melkiades xonasida vaqtning to'xtashi – bularning barchasi zamon va makonning sirli, g'ayritabiiy elementlarini ko'rsatadi" [3:463 p.]. Darhaqiqat, Makondo va undagi ba'zi joylar asardagi sirlilikni, ramziy ma'noni kuchaytiradi. Xususan, Aureliano Buendianing oltin baliqlarni yasaydigan ustaxonasi bo'lib, bu joy asarga nafaqat sirlilik bag'ishlagan, balki qahramonning o'ziga xos ichki olamine aks ettirishga xizmat qilgan.

Asar boshida yakka va sokin makon sifatiga ega bo'lgan Makondo urushlar, qirg'inlar, ijtimoiy tanazzuldan so'ng, ruhsiz, xarob va inqiroz jarligiga qulagan joyga aylanadi. Romanning kulminatsion nuqtasida Makondo butunlay g'oyib bo'ladi. Kuchli to'fon qishloqni yakson qiladi va qishloqdan asar ham qolmaydi. Bu hodisa Buendia oilasining tarixi va merosini ham butkul yo'qolganini, romanning tsiklik tuzilmasiga ham yakun yasalganini ko'rsatadi. Makonni bu tarzda tasvirlashdan maqsad romanning asosiy g'oyasi – inson taqdiri va hayoti borliqning muayyan kuchlariga bo'ysunishini ramziy ifodalashdan iboratdir. Shuningdek, bu voqea asarda zamon va makonning mifologik tasvirini ham namoyon etadi. Romanda tarixiy va mifologik zamonning uyg'unlashuvi, badiiy makonning ramziylashuvi, zamon va makon bilan bog'liq tasavvurlarning o'zgacha yo'sinda qayta jonlanishi ko'zga tashlanadi. Markes asardagi badiiy vaqt va makon orqali tarix, inson taqdiri va yolg'izlik kabi mavzularni chuqur tahlil qiladi. Makondo nafaqat

qishloq, balki o'tmish, hozir va kelajakni bir vaqtda o'ziga sig'dira olgan afsonaviy, abadiy makon sifatida jonlanadi. Aytish kerakki, Markes o'z ijodi bilan dunyo o'tmishi va kelajagining eng katta ijtimoiy xaritasini yaratdi. Bu xaritada u o'tmishdan to bugunga qadar ertamiz uchun xavf soladigan illatlar chegarasini ko'rsatib berdi. Borliq uchun xatarli bo'lgan jaholatning manbai ham ba'zi insonlar ekanini ta'kidladi.

Xulosa. Xullas, har ikki asarda badiiy makon vositasida ijtimoiy notenglik, adolatsizlik, johillik hamda irqchilikning insoniyat uchun qay darajada salbiy va fojiviy oqibatlarga olib kelishi aks ettirilgan. U.Folkner va G.Markes asarlarida "qurgan" xayoliy makon, aslida, biz yashayotgan real dunyoning eng fojiali muammolarini yoritishga ximat qilgan ijtimoiy xarakterga ega umumiy, ramziy makonlardir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Millgate M. The Achievement of William Faulkner. – USA: University of Georgia Press, 1986. – 344 p.
2. **Gonzalez Echevarria, Roberto.** *Myth and Archive: A Theory of Latin American Narrative.* – Cambridge: Cambridge University Press, 1990. – 239 p.
3. **Deeba, F., Ahmed, T., Sadiq, A., & Mahmood, A.** (2024). *Exploring Magical Realism: A Study of One Hundred Years of Solitude by Gabriel Garcia Marquez.* *Journal of Policy Research*, 9(2), 459-464 pp. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8278422>
4. Digital Yoknapatahawpha (<https://faulkner.iath.virginia.edu/>)
5. *Introducing Criticism at the 21st Century* by Julian Wolfreys, Edinburgh University Press, 2002. https://literariness.org/2017/07/04/spatial-criticism-critical-geography-space-place-and-textuality/#google_vignette
6. Eshonqul N. Mendan "men" gacha. – Toshkent: Akademnashr, 2014. – 512 b.
7. Folkner U. Qora musiqa. Uosh (hikoya). I.G'afurov tarjimasini. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. – 304 b.

PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI
N M P I
1934